



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 6-sinflar uchun
ona tili fanidan I chorak

DARS
ISHLANMALARI

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 6-sinf ona tili fanidan I chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Til – muloqot vositasi. Iboralar	1		
2.	Suhbat. Matn ustida ishlash. So‘zlarni tahlil qilish	1		
3.	Matn o‘qish (“Ona tilim” she’ri). Grammatik topshiriq ustida ishlash.	1		
4.	Til va uning ijtimoiy ahamiyati. Maktubga munosabat	1		
5.	Tasviriy matn ustida ishlash. O‘zi haqida ma’lumot. Matn xususiyati.	1		
6.	O‘zbekiston: bolalar uchun esselar tanlovi! Topshiriqlar. Matn o‘qish (“Qatnashchi yo‘llagan esse”). Muhokama	1		
7.	Matn o‘qish. Topshiriqlar. Ko‘p nuqta (tinish belgi).	1		
8.	Matnni tinglash (Anvar Obidjon haqida). Matn turlari va mazmuni. Grammatik topshiriqlar.	1		
9.	Matn tuzish. O‘z tarjimaiy holini yozish. Xulosalar.	1		
10.	Mustahkamlash. Tarjimaiy hol	1		
11.	1-nazorat ishi	1		
12.	Topshiriq. Matn tinglash. Tibbiy atamalar. Diagramma	1		
13.	“Amir” matniga oid topshiriqlar. So‘z va uning ma’nodoshlari	1		
14.	“Zaxira qo‘shinining uyi”. Topshiriqlar. Undalma, uning ifodalanishi, tinish belgilarining qo‘llanishi.	1		
15.	Munosabat. Har bir sohada tozalik muhimdir. Matnga oid topshiriqlar.	1		
16.	Global isish. Tasviriy matn. Matn o‘qish. Topshiriqlar ustida ishlash.	1		
17.	Iqlim o‘zgarishining oqibatlari. Topshiriqlar ustida ishlash.	1		
18.	“Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida axborot matni yozish. Belgi bildiruvchi so‘zlar	1		
19.	“Global iqlim o‘zgarishining O‘zbekiston iqlimiga ta’siri”.	1		

20.	Topshiriqlar ustida ishlash.	1		
21.	Qayta ishlanadigan chiqindilar. Matn tinglash. Matnga oid topshiriqlar.	1		
22.	Matn o‘qish (“Ekologik bank” haqida). Topshiriqlar. Fe’llarning munosabat shakli.	1		
23.	Matn o‘qish (“BioTexno Eko” korxonasi). Matnga oid topshiriqlar.	1		
24.	Biznes g‘oya nima? Loyiha ishi. Tinish belgilar (ko‘p nuqta)	1		
25.	Mustahkamlash	1		
26.	2-nazorat ishi	1		
27.	Ko‘z nurini asraylik. Matn o‘qish (“Ko‘zlarimiz – eng aziz do‘stlarimiz”). Topshiriq . To‘liq va to‘liqsiz fe’llar	1		
28.	Matn tinglash (“Optika”ning otasi). Topshiriq ustida ishlash	1		
29.	Tasviriy matn. Til birliklari. Topshiriq ustida ishlash	1		
30.	Matn o‘qish (“Bolalar televizorni qancha vaqt ko‘rishlari mumkin?”). Topshiriqlar. Otlarning lug‘aviy shakllari	1		
31.	Jigar — eng mehnatkash a’zo. Matn tinglash. Topshiriqlar. Bog‘lovchi	1		
32.	Matn o‘qish(“Himoyachi jigar”). Yuklama	1		
33.	Matn bo‘yicha topshiriqlar	1		
34.	Esse yozish tartibi	1		
35.	3-nazorat ishi	1		
36.	Mustahkamlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Til – muloqot vositasi. Iboralar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– darslik (lug‘atlar), kutubxona hamda media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saqlash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– mustaqil o‘qib o‘rganish, doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy rivojlantirish, ijodiylik ko‘nikmalarini oshirib borish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

• til va uning ijtimoiy ahamiyati • milliy til va qadriyatlarning uzviyligi • badiiy tasvir vositalari

va ulardan foydalanish • iboralar • og‘zaki va yozma nutqning imkoniyati • nutq uslublari • asos va qo‘shimchalar • tinish belgilari.

Do‘stingizga ustozingiz aytgan biror narsa, harakat yoki holatni so‘zsiz tushuntirishga urinib ko‘ring. Bu jarayonda nimalarni his qildingiz? Tilning ahamiyati haqida o‘ylab ko‘ring.



Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.



Til– kishilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashishning muhim vositasi.

Nutq bu – odamlarning til vositasida muloqot qilishi. Nutq og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi.

Ayting-chi, yozuvchi bilan uning asarini o‘qiyotgan kitobxon o‘rtasida muloqot bo‘lishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Rasmlarni o‘zaro bog‘lab turgan jihat nimada deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.
2. Ayting-chi, til qanday vazifalarni bajaradi?
3. Muloqot deganda nimani tushunasiz?
4. Fikrimizni tinglovchiga qanday shakllarda yetkazamiz?
5. Yozma nutqning og‘zaki nutqdan qanday farqi bor?
6. So‘zlashuv tili bilan adabiy tilning farqi nimada?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Suhbat. Matn ustida ishlash. Soʻzlarni tahlil qilish

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy: oʻquvchilarga yangi mavzu boʻyicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va toʻgʻri yozish koʻnikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: oʻquvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uygʻotish.

Rivojlantiruvchi: oʻquvchilarning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– madaniy meʼyorlarga va sogʻlom turmush tarziga hamda adabiy til meʼyorlariga amal qilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– guruhlarda hamkorlikda ishlay olish va bunda muomala madaniyatiga ega boʻlish. jadvalli maʼlumotlarni oʻqiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, koʻrgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “koʻrsam tezroq oʻrganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, koʻrgazmalar va tarqatma materiallar, oʻquv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Boʻlimlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Oʻtgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani soʻrash: a) Savol – javob oʻtqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson boʻlib yetishishi uchun juda koʻp narsalarni bilishi kerak. U oʻziga kerakli bilimni koʻrib, eshitib va oʻqib oʻrganadi. Eshitib va oʻqib oʻrganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til boʻlmay, har bir kishining tirikligi uning oʻz tajribasiga asoslangan boʻlsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy va maʼnaviy taraqqiyotga erishmagan boʻlard. Tilning birinchi maʼrifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat aʼzolarining har birida hosil boʻlgan bilim ommalashib, uning koʻpchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tugʻiladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan

avlodga ogʻzaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod oʻtgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot taʼminlanadi.

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqllovchisi, kishilar oʻrtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot “oldi-berdi”sining timsolsiz taʼminlovchisi. U yoʻqolsa, tamaddun tugaydi, u salomat boʻlmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi oʻzida xalq, erki oʻzida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qaygʻusini bir on unutmaydi.

1. Bilim olishda til imkoniyatidan qanday foydalanamiz?
2. Birinchi matnda tilning ikki maʼrifiy ahamiyati haqida soʻz boradi. Ular qaysilar?
3. Ikkinchi matnda tilning hayotimizdagi oʻrni qanday ifodalangan?
4. Ajdod va avlod oʻrtasidagi “oldi-berdi” nimalar boʻlishi mumkin?
5. Til salomat boʻlmasa, millat sochilib ketishi haqidagi fikrni izohlang. Muallif bu bilan nima demoqchi?
6. Til qanday qilib muhofaza qilinadi? Bu jarayonda siz ham qatnashishingiz mumkinmi? Qanday qilib?
7. Ikkala matn uchun qanday umumiy sarlavha qoʻyar edingiz? Javobingizni izohlang.



Soʻzlarni namunadagidek tahlil qiling. Berilgan soʻzlarning barchasi ushbu qoidaga mos keladimi? Oʻzingiz ham namunadagi kabi soʻzlardan topib, yozing.

Ruhiy, amaliy, maʼrifiy, aqliy, maʼnaviy.

Namuna tarixiy – tarixiy.



Ushbu gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning maʼnosiga mos keluvchi soʻzlarni daftaringizga alohida koʻchiring va ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Insoniyat til tufayli moddiy va maʼnaviy hayotda **taraqqiyot**ga erishib kelmoqda. Til boʻlmasa, **tamaddun** tugaydi, u salomat boʻlmasa, millat sochilib ketadi.

madaniyat	koʻtarilish	rivojlanish
harakatlanish	yuksalish	sivilizatsiya

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Ikkala matnning mazmunidan kelib chiqqan holda til haqidagi xulosalaringizni namunadagidek yozing.

Namuna Bilim olishimizda tilning imkoniyati cheksizdir.

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

64 listdan iborat ona tili fanidan 6-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**